



FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI

III-JILD

PHILOSOPHY AND FAITH:
PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 3

ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА:
ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 3

23-24-aprel, 2025

**“FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI**

Tashkiliy qo'mita raisi:

G'.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov

S.B. Qorayev

D.B. Axmadjanov

O.A. Ortiqov

S.X. Gayupova

R.A. Ikramov

L.K. Axatov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Jo'rayev H.A.

Koshanova N.M.

Tashmetov T.X.

Karshiyev Sh.S.

Neshitov P.Yu.

Xaytmetov R.K.

Muhammadiyev L.G.

Nafasov A.K.

Eronov S.Q.

Saidusmanov B.A.

Usmanov A.X.

Sunnatov T.R.

Tuganova L.Dj.

Toshtemirov R.A.

Ilmurodova f.Sh.

Yo'ldoshev U.X.

Abdullayeva D.N.

Sa'dullayeva M.X.

Xolmo'minov G.B.

Miraxmedova Sh.N.

Yakubov X.M.

Imomova U.I.

Tadjibayeva R.O.

Umarova Sh.B.

Yursinboyev J.M.

Nurmanov Sh.J.

Abdullayev T.S.

Maxkamov D.Sh.

Ilyosov Sh.B.

Burliyev U.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

ABDULLA AVLONIY - MA'RIFATPARVARLIK VA ADABIY MEROS

Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich

CHDPU Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi t.f.f.d.(PhD)

Email: baxrom.said@mail.ru

Gulsanam Nematova Furqatovna

CHDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

gulsanamnematova938@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'zbekiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy ma'rifatchi, shoir, pedagog va dramaturg sifatida millat taraqqiyoti yo'lida katta xizmat qilgan. Ushbu maqolada Avloniyning adabiy merosi va pedagogik faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadid, jadidchilik, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, "Birinch muallim", "Maktab gulistoni", tarbiya, axloq, xulq.

АННОТАЦИЯ

Абдулла Авлоний один из крупнейших представителей модернистского движения Узбекистана, служил просветителем, поэтом, педагогом и драматургом на пути развития нации. В данной статье анализируется литературное наследие и педагогическая деятельность Авлони.

Ключевые слова: модернизм, национальное возрождение, просвещение, «Первый учитель», «Школа Гулистан», воспитание, нравственность, поведение.

ANNOTATION

Abdulla Avloni, one of the great representatives of the modernist movement of Uzbekistan, served as an enlightener, poet, pedagogue and dramatist for the development of the nation. This article analyzes Avloni's literary heritage and pedagogical activities.

Key words: modernism, national revival, enlightenment, modernism, "First teacher", "School gulistan", education, morality, behavior.

KIRISH

"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat – yo halokat masalasidir" (Abdulla Avloniy)

XIX-XX asrlarda adabiyotimizga yangi yo'nalishlar, yangi nafas olib kelgan jadidchilik harakati rivojlandi. Ushbu harakatning asl mazmun mohiyatiga e'tibor

qaratsak, jadid – arabcha “yangi” degan ma’noni anglatadi. Darhaqiqat, bu yangilanish xalqni ilmsizlikdan xalos etdi. Xalqini ilm-u ma’rifatli ko’rishni istagan ana shunday jadidchi adiblardan biri Abdulla Avloniy edi.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshketda Mergancha mahallasida tug’ilgan. U 7yoshida O’qchi mahallasidagi boshlang’ich maktabda tahsil oldi. Bu maktabni tugatgach shu mahalladagi madrasada tahsilni davom qildirdi. Bolalikdan ilmga chanqoq bo’lganligi sababli mashaqqatlarga qaramasdan bilim olish uchun harakat qiladi qish kunlarida o’qib, yoz kunlarida ishlaydi. Mustabid tuzumdagi qiyinchiliklarga qaramasdan, borgan sari ilmsiz bo’layotgan xalqini ilmi ko’rishni istaydi. Shu maqsadda turli yillar davomida gazetchilik bilan shug’ullanib bir qancha gazetalar nashr etadi, o’z she’rlarida va badiiy asarlarida bilim, ma’rifat, tarbiya, axloq kabi tushunchalarni kengroq tarzda yoritadi. Abdulla Avloniy bolalar uchun bir qancha darsliklar yozadi, kichik yangi usuldagi jadid maktablarini ochadi. Bu maktab o’quvchilari uchun turli xildagi darsliklar yozadi, xususan, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Muallimi soniy”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlar va 6 qismdan iborat bo’lgan “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kabi darsliklar, alifbo va o’qish kitoblari shular jumlasidandir. Ushbu kitoblar bolalar yoshi va sa’viyasiga mosligi, o’quvchilarni tezroq savodli qilishga yo’naltirilganligi bilan zamonasining boshqa ta’limiy kitoblaridan ajralib turgan. Keyinchalik ushbu kitoblar barcha yangi usul maktablari uchun qayta – qayta nashr qilindi. Avloniy bular bilangina chegaralanib qolmasdan “Jamiyati xayriya” tashkilotini ochdi va u orqali mahalliy xalq bolalarining o’qib bilim olishi uchun pul yig’ib maktablarga tarqatdi. “Turon” nomli jamiyat ochib aholi orasida sahna – teatr ishlarini olib bordi. Xalq uchun spektakllar sahnalashtirdi va ular orqali ommaga ma’naviy ozuqa berishdek ishlarni amalga oshirdi. Keyinchalik shu nom ostida teatr ham barpo etdi va o’zi bir nechta pyesa yozdi, 10 ga yaqin pyesalarni ozarbayjon tilidan o’zbek tiliga tarjima qilib ularni sahnalashtirishga muvaffaq bo’ldi. Adibning "Maktab Gulistoni" asari o’z davrida faoliyat yuritgan maktablarning ikkinchi sinfida tahsil oluvchi o’quvchilari uchun mōljallangan bo’lib, Avloniyning o’zi bu asar haqida shunday yozadi: "Adabiy axloqiy maroq-u shavq ila o’quladigan hikoyalar, she’r ila Turkiston maktabining ikkinchi sinflaridan boshlab o’qutmoqqa muvofiq ravishda yosh bolalar uchun yengil vazn va oson sheva uzra tartib berildi". Asar muallifning maktab tōg’risidagi serma’no va serqirra she’ri bilan boshlanadi:

Maktab -xazinai adabu ilm(u) izzating,
Maktab -bo’gi Jannati Firdavs, ne'mating.
Maktab kishini jahl(u) daniydan qilur xalos,
Maktab -kalidi Kabai qalb(u) zakovating.

Avloniy kitobning ilk sahifalaridanoq maktabga yuqori baho beradi. Uni oliy dargoh -Ka'ba ila teng kōradi. Jannatdek orombaxsh makonligini ta'kidlaydi. Maktab inson boshiga yoğdiruvchi ma'rifat jaholatdan, ğazabdan xalos qilishi haqida sōzlaydi. Albatta, maktab insonga bilim xazinasini beruvchi dargoh. Maktab qalbni zakovatga tōldiruvchi manba hisoblanadi. “Birinci muallim” asari yangi usul maktablarida keng tarzda yoyila boshlagan. Uning o‘quvchilar doirasida tutgan ahamiyati kengaya bordi. Jadid maktablarining birinchi sinf o‘quvchilaridan boshlab to‘rtinchi sinf o‘quvchilariga qadar “Birinci muallim” darsligini o‘qishar, keyinchalik yaratilgan “Ikkinchi muallim” darsligi bilan tanishar edilar. “Birinci muallim” darsligi tarkibida alifbo, kichik-kichik hikoyatlar, voqealarning rivoyatlar, hikoyalar bilan hamohang tasviri o‘quvchilarda qiziqishni uyg‘otib tez savod chiqarishlariga sabab bo‘lar edi. Bu esa yangi usul maktablariga qo‘yiladigan eng dastlabki asarlardan biri hisoblanadi. “Birinci muallim” darsligida asosan til qoidalari, imlo savodxonligi kabilarga qat’iy e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu mavzularning amaliyoti kitob doirasida axloqqa oid hikoyalar yoki she’riy parchalar bilan ziynatlangan. Hozirgi kunda ham Avloniyning kitoblari sevib mutolaa qilib kelinmoqda.

XULOSA

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yirik namoyandasi sifatida millat taraqqiyoti yo‘lida beqiyos xizmat qilgan. Uning pedagogik qarashlari, adabiy merosi va ijtimoiy faoliyati o‘zbek ma’naviyati rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ham Avloniyning fikrlari va asarlari yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Avloniy.Toshkent tongi. T,1979yil
2. Wikipedia
3. Avloniy Abdulla .Turkiy Guliston Yoxud Axloq .T. 1917-yil
4. Abdulla Avloniy . Zarjabad media .T:2022-YIL

UNING KELIB CHIQISHI, ASOSIY E'TIQODLARI	
64. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Yulduz Ashurova Erkinovna, Maftuna Abdumalikova Sobir qizi ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI	227
65. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Siyovush Xikmatulloyev Jumanazar o'g'li ISLOM TA'LIMOTI. ISLOM ILOHIYOTI, UNING ASOSIY AQIDALARI	233
66. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Hadicha Rozmatova Azamat qizi Rayhona Jangirova Mansurbek qizi YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT	238
67. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Zumrad Shomurodova Gulimboy qizi MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING DINIY QARASHLARI	241
68. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Dilafruz Movlonova Ne'matullaevna YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT	245
69. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Sardor Davlatov Aamovich Samira Shorahimova Xurshed qizi YOSHLARDA TA'LIMIY VA TANQIDIY TAFAKKUR TUSUNCHALARI	248
70. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Gulsanam Nematova Furqatovna ABDULLA AVLONIY - MA'RIFATPARVARLIK VA ADABIY MEROS	251
71. Райхона Чамолитдонова БАЪЗЕ МАСЪАЛАҲОИ УСЛУБИВУ БАДЕЙ ДАР ЭҶОДИЁТИ ШОИРИ ЗУЛЛИСОҲАЙН - ТУРДӢ	254
72. Сарвиноз Расулова ИНФОРМАЦИОННЫЕ ВОЙНЫ	259
73. Sitora Tulavbayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MADANIY VA MA'NAVIY TARAQQIYOT	263
74. Feruza Azimboyeva Egambergan qizi Uyg'un Abdulhaqov Botir o'g'li DINSHUNOSLIK: TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI	268
75. Sevinch Jurakulova Olim qizi Umida Abdumalikova Abdumalikova MILLATLAR VA DINLARARO BAG'RIKENGLIK: FALSAFIY TAHLIL	273
76. Сабрина Мамадисмонова ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В КИТАЕ	278
77. Асем Абдуллаева ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФРАНЦИИ	282
78. Арайлым Ермуханова Шералиевна НЕПРЕРЫВНОСТЬ И СВОЕОБРАЗИЕ ПОНЯТИЯ КОММУНИКАЦИИ И ИНФОРМАЦИИ	286
79. Арайлым Ермуханова Шералиевна УГРОЗЫ И ОПАСНОСТИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ.	290
80. Абзалбек Жаксылыков МЕДИАГРАМОТНОСТЬ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: КЛЮЧЕВЫЕ НАВЫКИ ДЛЯ КРИТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ ИНФОРМАЦИИ	294